



KONSTITUTSIYANING DAVLAT APPARATI FAOLIYATIDA TUTGAN O'RNI

Allambergenov Saparbay Dauletbayevich

O'zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti dotsenti,
yuridik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
<https://doi.org/10.5281/zenodo.17934537>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 06-dekabr 2025 yil
Ma'qullandi: 11-dekabr 2025 yil
Nashr qilindi: 15-dekabr 2025 yil

KEYWORDS

«Oliy yuridik kuchga ega asosiy qonun – bu, Konstitutsiya», «Qoraqalpog'iston Respublikasining Konstitutsiyasi», «Qoraqalpog'iston Respublikasi davlat hokimiyati organlari», «Jo'qorg'i Kenges (Parlament)», «Vazirlar Kengashi (Hukumat)», «Sud hokimiyati»..

ABSTRACT

Ushbu maqolada Konstitutsiya – davlat apparati faoliyatida tutgan o'rni ilmiy-nazariy va konstitutsiyaviy-huquqiy tahlili haqida fikrlar ilgari surilgan

Davlatning huquqiy asoslarini belgilovchi, oliy yuridik kuchga ega bo'lgan asosiy qonun – bu, Konstitutsiyadir. U nafaqat davlatning shakli va boshqaruv tizimini belgilaydi, balki davlat apparatining tuzilishi, vakolatlari va faoliyat yo'nalishlarini ham huquqiy jihatdan mustahkamlaydi.

Shunday ekan, Konstitutsiya davlat apparatining asosiy tayanchi, uni shakllantiruvchi va davlat boshqaruvini yo'naltiruvchi poydevor sifatida maydonga chiqadi. Davlat organlari va mansabdor shaxslarning faoliyati Konstitutsiyaga asoslanmagan holda qonuniy va legitim bo'la olmaydi.

Shu bois Konstitutsiyaning davlat apparati faoliyatidagi o'rnini o'rganish huquqshunoslik nazariyasida ham, amaliyotda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Konstitutsiyaning davlat apparati faoliyatida tutgan o'rni quyidagi xususiyatlari orqali namoyon bo'ladi:

Birinchidan, Konstitutsiya davlat apparatini "yaratuvchi" hamda uning institutsional dizaynini shakllantiruvchi normativ asos hisoblanadi.

Hokimiyat tarmoqlari va ularning o'zaro muvozanati, qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatlarining maqomi, shakllanish tartibi, vakolat doirasi, o'zaro munosabatlari konstitutsiyaviy darajada belgilanadi.

Xususan, Qoraqalpog'iston Respublikasi Konstitutsiyasining 7-moddasida "Qoraqalpog'iston Respublikasida davlat hokimiyati xalq manfaatlarini ko'zlab va Qoraqalpog'iston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda uning asosida qabul qilingan qonunlar vakolat bergan idoralar tomonidagina amalga oshiriladi.

Konstitutsiyada nazarda tutilmagan tartibda davlat hokimiyati vakolatlarini o'zlashtirish, hokimiyat idoralari faoliyatini to'xtatib qo'yish yoki tugatish, hokimiyatning yangi va muvoziy tarkiblarini tuzish Konstitutsiyaga xilof hisoblanadi va qonunga binoan javobgarlikka tortishga asos bo'ladi", - deb belgilangan.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Konstitutsiyasining beshinchi bo'limi "Davlat hokimiyatining tashkil etilishi" deb nomlanib, unda Jo'qorg'i Kengesi (Parlament), Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi Raisi (Qoraqalpog'iston Respublikasi Rahbari va eng yuqori lavozimli shaxsi), Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi Prezidiumi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi (Hukumat), mahalliy davlat hokimiyati, Qoraqalpog'iston Respublikasi sud hokimiyati, Konstitutsiyaviy nazorat, prokuratura kabi organlarning faoliyat tartibi mustahkamlab qo'yilgan.

Ikkinchidan, Konstitutsiya davlat apparati faoliyatida tutgan o'rni uning oliy yuridik kuchga ega bo'lishi bilan belgilanadi. Barcha qonunlar, normativ-huquqiy hujjatlar, davlat organlari qarorlari Qoraqalpog'iston Respublikasi Konstitutsiyasiga zid kelmasligi lozim. Agar davlat apparati faoliyatida Konstitutsiyaga zid qaror yoki hujjat qabul qilinsa, u bekor qilinadi yoki qonuniy kuchga ega bo'lmaydi.

Demak, Konstitutsiya davlat apparati uchun "asosiy mezon" vazifasini bajaradi (Konstitutsiya 15, 16-moddalari).

Uchinchidan, Konstitutsiya davlat apparati faoliyatiga tamoyillar asosida yo'naltirish beradi. Qonun ustuvorligi, demokratiya, hokimiyatlarning bo'linishi, inson huquqlari ustuvorligi kabi konstitutsion tamoyillar davlat apparati ishida asosiy mezon vazifasini bajaradi. Buning natijasida davlat organlari vakolatlarni suiste'mol qilmaslikka, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini himoya qilishga majbur bo'ladi. Shu tariqa Konstitutsiya davlat apparati faoliyatining mazmun-mohiyatini belgilab, davlat apparati faoliyatining "mazmuniy kompassi" vazifasini bajaradi (Konstitutsiya birinchi bo'limi).

To'rtinchidan, Konstitutsiya davlat apparati faoliyatini protsessual jihatdan tartibga soladi. Masalan, davlat organlarini tashkil etish tartibi, ularning maqomi, vakolatlari doirasi konstitutsiyaviy asoslarda belgilanadi. Bu esa davlat apparati faoliyatining shaffof va izchil bo'lishiga yordam beradi (Qoraqalpog'iston Respublikasi Konstitutsiyasi 3-modda va beshinchi bo'lim).

Beshinchidan, Konstitutsiya davlat apparati faoliyatida hisobdorlik va javobgarlik mexanizmlarini belgilaydi. Barcha davlat organlari jamiyat va fuqarolar oldida, belgilangan tartibda yuqori turuvchi organlar oldida mas'ul hisoblanadi. Bundan tashqari parlament hukumat ustidan nazoratni amalga oshiradi, sudlar esa davlat organlari qarorlarini qonuniylik nuqtayi nazaridan tekshiradi. Shuningdek, ommaviy axborot vositalari va fuqarolik jamiyati institutlari ham Konstitutsiyada nazarda tutilgan mexanizmlar orqali davlat apparati faoliyati ustidan nazoratni amalga oshiradi.

Oltinchidan, Konstitutsiya davlat apparati faoliyatida barqarorlik va huquqiy vorisiylikni ta'minlaydi. Konstitutsiya davlat boshqaruvi tizimining uzluksiz va izchil ishlashini kafolatlaydi. Har qanday siyosiy o'zgarishlar yoki davlat rahbariyatidagi almashinuvlar

Konstitutsiya doirasida amalga oshirilishi shart. Shuningdek, Konstitutsiya davlat organlari va mansabdor shaxslar almashinganda ham davlat apparatining huquqiy asoslari va prinsiplari saqlanib qolishini ta'minlaydi. Bu esa davlat boshqaruvida beqarorlik, ixtilof va inqirozlarning oldini oladi.

Xulosa qilib aytganda Konstitutsiyaning davlat apparati faoliyatidagi o'rni nihoyatda muhimdir. U davlat apparatini tashkil etadi, institutsional xaritasini shakllantiradi, vakolat doirasini belgilaydi va organlar o'rtasida taqsimlaydi, faoliyat tamoyillarini mustahkamlaydi hamda javobgarlik mexanizmlarini o'rnatadi.

Konstitutsiya davlat apparati uchun nafaqat tashkiliy-huquqiy poydevor, balki jamiyat oldidagi mas'uliyatni ham belgilovchi hujjatdir. Shu sababli Konstitutsiya davlat apparati faoliyatida ham "asosiy qonun", ham "asosiy qo'llanma" vazifasini bajaradi. Bu orqali esa davlat apparatining legitim, hisobdor va samarali bo'lishini ta'minlaydi.

